

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
BUGUNGI KUNDA AVLODLARARO VORISIYLIKNING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY
TAHLILI

Abdukarimova Gulchexra Baratovna

Toshkent davlat transport universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Globallashuv shapoitida yoshlapning zamonaviy madaniy qiyofaci o‘pganilishi jamiyat hayotining bapcha cohalapi bilan bog‘liq holda amalgamashipilmoqda. Yoshlapning zamonaviy madaniy qiyofacini shakllantipishda umuminconiy qadpiyatlapning o‘pni, bugungi kundagi jamiyat tapaqqiyotidagi poli bevocita ahamiyatlidip. Yoshlapning umuminconiy qadpiyatlapga bo‘lgan munocabatida tolepantlikning namoyon bo‘lishi yoshlap ma’naviy qiyofaci bilan bog‘liqdip. Shunga acoclanib, vaqt o‘tishi bilan qadpiyatlap tizimi jamiyatda muhim pol o‘ynashini yoshlapning ma’naviy dunyociga ta’cip etishida ko‘pishimiz mumkin. Yosh avlodning hap bip vakili o‘z mamlakatini pivojlanipish va inconiyatga foyda keltipishni maqcad cifatida belgilab, faoliyatini tashkil etishi kepak. Hap bip millatning kelajagi xalqning intellektual calohiyati mamlakatning qayci yo‘ldan pivojlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdip. Shaxcning ijtimoiy faollik dapajaci, madaniy yukcalishini ta’minlovchi muhim omil ta’lim va tapbiya hicoblanadi.

Avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish hozirgi kunda ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarining diqqat markazida turibdi. Qarilik ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida oddiyligi, tabiiylici tufayli uzoq vaqt mobaynida ilmiy tahlil obyekti tarzida o‘rganilmagan. XIX asr oxirida shveysariyalik olim A.Sabatyev ilgari surgan yondashuv “qarilik”, “qarish”, “o‘lim” va “o‘lish” tushunchalarining ilmiy talqiniga asos soldi. U o‘z ilmiy tadqiqot va ma’ruzalarida qarilik va qarish muammolariga nisbatan tabiiy-ilmiy yondashuvlarni birlashtiruvchi nuqtai nazarni ilk bor ta’riflab berdi. U qarilikni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

organizm faoliyatining o‘limga olib boruvchi tanazzul davri sifatida talqin qildi. Bugun tadqiqotlarning aksariyati yosh va o‘rtalarning ijtimoiy o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, yoshlar va keksalar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishni taqazo etmoqda.

Avlodlararo vorisiylikning nazariy-metodologik asoslarini avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tashkil etadi. M.B.Glotov fikricha, “Avlod – bu aniq tarixiy davrda shakllangan va yosh farqi asosida faoliyat yurgizish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar bilan chegaralangan insonlarning obyektiv ravishda takomillashadigan sotsial-demografik va madaniy-tarixiy birligi sanaladi”¹. Bizningcha, avlod tushunchasining boshqa ma’nolari mavjud bo‘lib, “avlod” va “yosh” tushunchalarini aralashtirishga asoslangan yoki tarixiy ma’noga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Etimologik jihatdan olib qaraganda, «avlod» tushunchasi o‘zida «gan» («nasl qoldirish») va lotin tilidagi «generation» («yaratilgan», «meva») so‘zi bilan hamda sotsiologiyaga oid rus tilidagi adabiyotlarda «koleno» («avlod tarmog‘i», «shajaraning bosqichi»)² ma’nolarini anglatadi. Avlodlaaro vorisiylik-ajdodlar bilan avlodlar o‘rtasidagi qarishdoshlik aloqalari, munosabat an’ana va qadriyatlarning davom etishini, nasliy ma’naviy-axloqiy yaqinlikni anglatadi.

Avlodlararo vorisiylik umumiy ma’noda jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy ma’naviy madaniyatning avloddan-avlodga o‘tkazilishini anglatadi va shaxsnинг rivojlanish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda avlodlararo vorisiylik jamiyatning taraqqiyotining asosiy mezonlari va zaruriy sharti hisoblanadi. Bizningcha, insoniyat azaldan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hayotdan maqsad – yurt birligini, yer yaxlitligini va xalqning hamjihatligini ta’minlashdan, shuningdek boy milliy ma’naviyat xazinalarini asrab-avaylash va ko‘paytirishga intilgan. Ular bu vazifani hayotga tatbiq etishda hamisha yetakchi bo‘lib kelgan, oljanoblik, saxovatpeshalik ularni asosiy ma’naviy-axloqiy fazilatlari bo‘lgan. Gerantologiya avlodlararo vorisiylikning ijtimoiy-falsafiy va

¹ Глотов М.Б. Поколение как категория социологии // Социологические исследования. – Москва, 2004. № 10. – С. 42-48.

² Калиновский, Ю.И. Философия образовательной политики / Ю.И. Калиновский. – Москва, 2000. – С. 540.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tarixiy tushunchalardan biri bo‘lib, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifoda etadi. Madomiki, milliy- ma’naviy meros, diniy an’analar, urf-odatlarning qadrlanishi, yosh avlodga yetkazilishi va rivojlanishi ma’naviy madaniyat sohasidagi avlodlar davomiyligini o‘zda ifoda etadi. Hozirgi kunda gerantologiya ijtimoiy-falsafiy tadqiqot obyekti qarilik va qarish jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy, nazariy-metodologik jihatdan tadbiq etmoqda. Chunki, har bir avlod oldingi avlodga nisbatan o‘zgargan va o‘zgaruvchan sharoitlarda merosxo‘rlikni qo‘llaydi. Binobarin, avlodlar uzlusizligi o‘zining atributi sifatida tadqiqot obyektini ham o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy-madaniy muhit keksalar va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning jamiyatga ta’sirini o‘rganishga imkon beradigan va bunday o‘zaro ta’sir madaniyatining uzlusizligi bilan bog‘liqligini ifoda etadigan ijtimoiy-madaniy tahlilni o‘tkazish kerak. Ushbu muammoni tadqiq etishning istiqbolli yo‘nalishlari mamlakatimizda keksalar va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirishga yordam beradigan nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish lozim. Madomiki shunday ekan, gerantologiyaning ilmiy-falsafiy mezonlarini, keksalar va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning jamiyat rivojiga ta’sirining xususiyatlarini aniqlash, ijtimoiy-madaniy yondoshuv asosida amalga oshiriladi. Bu esa tarixiy ijtimoiy-madaniy kontekstni tahlil qilish imkonini yaratadi³.

Insoniyat yaratilgandan buyon jamiyatda birorta avlod o‘zining avlodlaridan ajralmagan va ajralib turolmaydi. Barcha avlodlar nafaqat o‘zaro bog‘liqlikda, balki o‘zaro ta’sir jarayonida bo‘ladi. Chunki, bir avlod ma’lum bir tarzda, uzining ma’naviy-diniy qadriyatlari, urf odatlari kelajak avlodga meros qoldiradi. Shunday ekan yoshlar va keksa avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro munosabatlar masalasi abadiy muammolardan biri bo‘lib, bu muammo nafaqat biologik, balki ijtimoiy-madaniydir. Uning ahamiyati, teranligi, ko‘p qirraliligi va qarama-qarshiligi jihatidan insoniyatning mavjudligi va uning istiqbolini belgilab beruvchi omillar hisoblanadi. Xususan, “Avlodlararo munosabatlardagi vorisiylik

³

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yoki ziddiyatli ixtiloflarni sotsiologik tadqiq qilish bugungi jamiyatning tarixiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘ziga xos jihatlarni ma’lum ma’noda anglashga yordam beradi. Avlodlar vorisiyligi – ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘lib, biz unda avlodlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilikni kuzatmaymiz. Biroq ikki avlod o‘rtasida ziddiyatlarning vujudga kelishi tabiiy jarayon”.

Bizningcha, avlodlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir - bu yoshlarning ham, keksalarning ham ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlarini to‘plash va muvofiqlashtirishning maqbul modellari, shakllari va usullarini doimiy ravishda izlash demakdir. Shu ma’noda gerantologiya ilmiy-falsafiy ta’limotlardan biri bo‘lib, uzining tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

REFERENCES

1. A.Sabatye A. Jizn fransiska assizskago. – Moskva. 1996. – 365 s.
2. Glotov M.B. Pokoleniye kak kategoriya sotsiologii // Sotsiologicheskiye issledovaniY. – Moskva, 2004. № 10. – S. 42-48.
3. Sotsiologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, Izdatelstvo NORMA , 2000. – S. 488.
4. Kalinovskiy, Y.I. Filosofiya obrazovatelnoy politiki / Y.I. Kalinovskiy. – Moskva, 2000. – S. 540.
5. Miponov, A. V. Ponyatie sennosti, vidi i iepapxiya sennostey / A.V. Miponov // Sotsialno-gumanitapnie znaniY. – 2007. – № 1 S-101.
6. Abdukarimova G. B. Nauchno-filosofskiy analiz sovremennoogo etapa globalizatsii //Nauka, obrazovaniye i kultura. – 2019. – №. 4 (38). – S. 36-37.